



**O'SMIR YOSHDAGI YIGIT VA QIZLARDA XARAKTER
AKSENTUATSIYASINING XAVOTIRLANISH DARAJASI BILAN
O'ZARO BOG'LIQLIGI QIYOSIY –KORRELYATSION TAHLIL**

University of Business and Science
Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi
Jurayev Xaydarjon Odilboyevich
ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-2585-8439>

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'smir yoshdagi o'g'il va qiz bolalarda xarakter aksentuatsiyalarining xavotirlanish darajasi bilan o'zaro bog'liqligi qiyosiy-korrelyatsion tahlil qilingan. 9-sinf o'quvchilari o'rtasida o'tkazildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, xarakterdagi xavotirlanuvchanlik va emotivlik xislatlari shaxsiy va maktab xavotiri bilan kuchli ijobiy korrelyatsiyaga ega. Shuningdek, gipertim aksentuatsiyasi o'smirlarda xavotirni pasaytiruvchi psixologik himoya mexanizmi ekanligi aniqlangan.

Kalit so'zlar: o'smirlik davri, xarakter aksentuatsiyasi, xavotirlanish darajasi, korrelyatsion tahlil, emotivlik, gipertimlik, maktab xavotiri, gender tafovutlar.

Аннотация: В данной статье представлен сравнительно-корреляционный анализ взаимосвязи акцентуаций характера и уровня тревожности у подростков мужского и женского пола. Исследование проводилось среди учащихся 9-х классов Результаты показывают, что такие черты характера, как тревожность и эмотивность, имеют сильную положительную корреляцию с личной и школьной тревожностью. Также установлено, что гипертимная акцентуация выступает в качестве психологического защитного механизма, снижающего уровень тревожности у

Ключевые слова: подростковый период, акцентуация характера, уровень тревожности, корреляционный анализ, эмотивность, гипертимность, школьная тревожность, гендерные различия.

Abstract: This article presents a comparative correlational analysis of the relationship between character accentuations and anxiety levels among male and female adolescents. The study was conducted among 9th-grade students in the . The results





indicate that character traits such as anxiety and emotivity have a strong positive correlation with personal and school anxiety. Furthermore, hyperthymic accentuation was found to serve as a psychological defense mechanism that reduces anxiety levels in adolescents.

Keywords: adolescence, character accentuation, anxiety level, correlational analysis, emotivity, hyperthymia, school anxiety, gender differences.

KIRISH Zamonaviy psixologiya fanida o'smir yoshidagi bolalarning shaxsiy tipologiyasi, temperament xususiyatlari va xarakterologik qiyofasini tadqiq etishga bo'lgan qiziqish strategik ahamiyat kasb etmoqda. Bu bejiz emas, zero o'smirlik davri shaxsning ijtimoiylashuvi va fundamental xarakter tizimining shakllanishida hal qiluvchi bosqich hisoblanadi. So'nggi yillarda o'tkazilgan psixologik monitoringlar o'smirlar xulq-atvorida emotsional labillik, giperfaollik va affektiv reaksiyalarga moyillik kabi aksentuatsiya belgilarining ortib borayotganini ko'rsatmoqda. Xususan, demonstrativlik va emotsional beqarorlikning yuqori darajasi o'smir shaxsining psixologik transformatsiyasiga va uning ijtimoiy muhitga moslashuv (adaptatsiya) jarayonlariga fundamental ta'sir ko'rsatuvchi omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Jahon tajribasida o'smirlar shaxsini rivojlantirish, ularning xarakter xususiyatlarini aniqlash va o'z vaqtida psixologik yordam ko'rsatishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, oilaviy tarbiya uslubi, maktabdagi ta'lim-tarbiya jarayoni, tengdoshlar guruhi bilan muloqot va OAV ta'siri o'smirlarning xarakter aksentuatsiyasining kuchayishi va turli ko'rinishda namoyon bo'lishiga bevosita ta'sir qiluvchi omillar sifatida qaralmoqda. Shu jihatdan, o'smirlarning xarakter aksentuatsiyasi namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlarini aniqlash, ularning individual tiplarini o'rganish va bu jarayonda ta'sir etuvchi ob'ektiv hamda sub'ektiv omillarni tadqiq etish hozirgi zamon psixologik tadqiqotlari uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotimizni bir nechta viloyatlarda olib bordik jumladan Andijon viloyati Bo'z tumani 16-maktab o'quvchilari ma'lumotlari asosida tayyorlangan korrelyatsion tahlil natijalarini quydagi jadvalarda korrelyatsion statistic taxlilini aniqladik.





**1-jadval. Aksentuatsiya va xavotirlanish turlari o'rtasidagi korrelyatsiya
(Pearson \$r\$)**

Ushbu jadval o'smirlarning xarakter xususiyatlari va ulardagi xavotir turlari o'rtasidagi bog'liqlik darajasini ko'rsatadi.

Aksentuatsiya tiplari (Shmishek)	Maktab xavotiri	O'zi bilan bog'liq xavotir	Shaxslararo xavotir	Bog'liqlik talqini
Gipertim	\$-0.32\$	\$-0.28\$	\$-0.15\$	Kuchli bo'lmagan manfiy bog'liqlik
Xavotirlanuvchi	\$+0.64\$	\$+0.58\$	\$+0.41\$	Kuchli ijobiy bog'liqlik
Emotiv	\$+0.38\$	\$+0.45\$	\$+0.52\$	O'rtacha ijobiy bog'liqlik
Qo'zg'aluvchan	\$+0.42\$	\$+0.12\$	\$+0.39\$	O'rtacha ijobiy bog'liqlik
Rigid	\$+0.35\$	\$+0.22\$	\$+0.28\$	Kuchli bo'lmagan ijobiy bog'liqlik

2-jadval. Gender (Jinsi) bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlar tahlili

Tadqiqotdagi o'g'il va qiz bolalar natijalari o'rtasidagi farqlar.

Ko'rsatkichlar	Qizlar (M)	O'g'il bolalar (M)	Tafovut tavsifi
Emotivlik	\$11.2\$	\$8.9\$	Qizlarda hissiy sezgirlik yuqori
Xavotirlanuvchi aks.	\$11.4\$	\$9.8\$	Qizlar ichki xavotirga moyilroq
Maktab xavotiri	\$8.8\$	\$10.1\$	O'g'il bolalarda maktabdagi mas'uliyat xavotiri yuqori
O'zi bilan bog'liq xavotir	\$9.9\$	\$9.1\$	Qizlarda shaxsiy baholashga xavotir ko'proq

Tahliliy xulosa (Interpretatsiya)





Taqdim etilgan jadvallardagi raqamlar quyidagi ilmiy xulosalarga asos bo'ladi:

Determinantlik: Xavotirlanuvchi aksentuatsiyasi yuqori bo'lgan o'quvchilarda (masalan, Abdulhayeva S. – 15 ball, Odiljanova D. – 15 ball) barcha turdagi xavotirlar bilan kuchli bog'liqlik mavjud ($r > 0.50$). **Hissiy sezgirlik:** Axmadjonova Mubina kabi Emotiv tipi yuqori (16 ball) o'quvchilarda shaxslararo munosabatlardagi xavotir darajasi (11 ball) o'zaro mutanosiblikni ko'rsatmoqda.

Maktab xavotiri: Turg'unov Mashxurbek (15 ball) va Jamoliddinova Gulshodaxon (15 ball) kabi o'quvchilarda aksentuatsiyaning Rigid yoki Rasmiy tiplari maktabdagi muvaffaqiyat xavotirini kuchaytiradi. **Ijtimoiy immunitet:** Gipertimlik ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan (Tuxtasinov B., Abdulhayeva S.) o'quvchilarda xavotir ko'rsatkichlari bilan manfiy korrelyatsiya kuzatiladi, bu esa faollik xavotirni pasaytiruvchi omil ekanligini anglatadi.

3-jadval. Jizzax viloyati 9-sinf o'quvchilarining xarakter aksentuatsiyasi o'rtacha ko'rsatkichlari

1-ko'rsatkich	2-ko'rsatkich	Korrelyatsiya (r)	Bog'liqlik darajasi
Gipertim	Ekzalator	$+0.52$	O'rtacha ijobiy (Yuqori hayotiy energiya)
Distim	Xavotirlanuvchi	$+0.48$	O'rtacha ijobiy (Ikkilanish va tushkunlik)
Emotiv	Tsikloit	$+0.44$	O'rtacha ijobiy (Hissiy beqarorlik)
Qo'zg'aluvchan	Rigid	$+0.39$	Kuchli bo'lmagan ijobiy (Xulq-atvordagi qat'iyat)

Jizzax guruhi bo'yicha ilmiy tahlil va xulosalar:

Yetakchi aksentuatsiyalar: Jizzaxlik o'smirlarda Gipertim (15 ball – Murodov F., Xusanova N., Baratov J.) va Rigid (18 ball – G'ayibnazarova R.) tiplari eng yuqori ko'rsatkichlarni tashkil etadi. Bu ushbu hudud o'smirlarining ijtimoiy muhitda faol, lekin o'z qarashlarida biroz qaysar ekanligini ko'rsatadi. **Gender tafovutlari:** Qizlarda: Xavotirlanuvchi (Qurbonova B. – 18 ball) va Emotiv (Xusanova N. – 16 ball)





ko'rsatkichlar yuqori bo'lib, bu ularda hissiy kechinmalarning chuqurligidan dalolat beradi.

O'g'il bolalarda: Distim (Murodov F. – 18 ball) va Rasmiy (Murodov F. – 16 ball, Abduazimov Sh. – 15 ball) ko'rsatkichlar ko'proq uchraydi. Kritik holatlar: Murodov Faxriddin va Xusanova Nigina kabi o'quvchilarda bir vaqtning o'zida bir nechta aksentuatsiyalarning o'ta yuqori ballari (15-18 ball) kuzatildi. Bu ularning xarakterida ziddiyatli vaziyatlar va hissiy "portlashlar" ehtimoli yuqoriligini anglatadi.

4-jadval. Mirzacho'l tumani 9-sinf o'quvchilarida xarakter aksentuatsiyasi va xavotirlanishning o'zaro bog'liqligi (Korrelyatsion tahlil)

Ushbu jadvalda xarakter tiplari va xavotir turlari o'rtasidagi bog'liqlik ko'rsatkichlari (r_s - Pearson koeffitsiyenti) aks etgan.

Aksentuatsiya tiplari (Shmishek)	Maktab xavotiri	O'zi bilan bog'liq xavotir	Shaxslararo munosabatdagi xavotir	Bog'liqlik tavsifi
Xavotirlanuvchi	$+$0.68$$	$+$0.72$$	$+$0.55$$	O'ta kuchli ijobiy bog'liqlik
Distim	$+$0.45$$	$+$0.51$$	$+$0.38$$	O'rtacha ijobiy bog'liqlik
Ekzalator	$+$0.42$$	$+$0.35$$	$+$0.48$$	O'rtacha ijobiy bog'liqlik
Gipertim	$-$0.38$$	$-$0.25$$	$-$0.18$$	Manfiy bog'liqlik (xavotir past)
Rigid (Qaysar)	$+$0.32$$	$+$0.28$$	$+$0.40$$	Kuchli bo'lmagan ijobiy bog'liqlik



5-jadval. Guruh bo'yicha umumiy statistik ko'rsatkichlar (Jizzax namunasi)
Ushbu jadval o'smirlar guruhidagi xavotir turlarining o'rtacha ballarini
ko'rsatadi.

Xavotirlanish sohalari (Prixojan bo'yicha)	O'rtacha ball (M)	Darajasi
Maktab xavotiri	\$9.8\$	O'rtacha daraja
O'zi bilan bog'liq xavotir	\$10.2\$	O'rtacha daraja
Shaxslararo munosabatdagi xavotir	\$10.1\$	O'rtacha daraja

Ilmiy tahlil va talqin (Interpretatsiya)

Taqdim etilgan ma'lumotlar tahlili quyidagi qonuniyatlarni aniqladi:

Xarakter va xavotir mutanosibligi: Xavotirlanuvchi aksentuatsiyasi yuqori bo'lgan o'quvchilarda (masalan, Qurbonova B. – 18 ball) O'zi bilan bog'liq xavotir (10 ball) va Shaxslararo xavotir (12 ball) ko'rsatkichlari yaqqol ko'zga tashlanadi. Emotsional beqarorlik: Distim va Ekzalator ballari yuqori bo'lgan o'quvchilarda (masalan, Murodov F. – har ikkisi 18 balldan) xavotirning barcha turlari o'rtacha darajadan baland (14-16 ball) ekanligi kuzatildi. Bu ushbu o'quvchilarda hissiy o'zgaruvchanlik xavotirni kuchaytirishini ko'rsatadi.

Muloqotdagi xavotir: Rigid (qaysar) aksentuatsiyasi yuqori o'quvchilarda (masalan, G'ayibnazarova R. – 18 ball) shaxslararo munosabatlardagi xavotir (11 ball) maktab xavotiridan yuqoriroqdir. Bu ularning o'z fikrida qat'iy turishi tengdoshlari bilan muloqotda biroz taranglik keltirib chiqarishidan dalolat beradi. Maktab xavotiri: Abduazimov Sh. (16 ball) va Akbayeva Ch. (15 ball) kabi o'quvchilarda maktab bilan bog'liq xavotir darajasi yuqori. Bu holat ularning xarakteridagi Rasmiy (Pedantik) va Emotiv tiplarining yuqoriligi bilan bog'liq bo'lib, o'quv vazifalariga o'ta mas'uliyat bilan yondashish natijasidi.





Bu jadvalda Shmishek (Aksentuatsiya) va Prixojan (Xavotirlanish) ko'rsatkichlari bo'yicha olingan empirik natijalar o'zaro qiyoslangan.

6-jadval

**ANDIJON VA JIZZAX VILOYATLARI O'SMIRLARINING PSIXOLOGIK
KO'RSATKICHLARI QIYOSIY JADVALI**

Psixologik ko'rsatkichlar (O'rtacha ball - M)	Andijon (9-sinf)	Jizzax (9-sinf)	Hududiy farq tahlili
Gipertim (Faollik)	\$12.1\$	\$11.9\$	Andijonda ijtimoiy faollik biroz yuqori.
Emotiv (Hissiy sezgirlik)	\$10.5\$	\$11.3\$	Jizzaxda hissiy ta'sirchanlik ustun.
Rigid (Qat'iyatlilik/Qaysarlik)	\$11.1\$	\$11.7\$	Jizzaxda qarashlar turg'unligi yuqori.
Xavotirlanuvchi (Aksentuatsiya)	\$11.4\$	\$10.2\$	Andijonda xavotirga moyillik kuchliroq.
Maktab xavotiri (Prixojan)	\$9.4\$	\$9.8\$	Jizzaxda o'quv faoliyati xavotiri yuqori.
O'zi bilan bog'liq xavotir	\$9.5\$	\$10.2\$	Jizzaxda shaxsiy baholash xavotiri baland.
Shaxslararo xavotir	\$9.7\$	\$10.1\$	Ijtimoiy munosabatlarda Jizzax guruhi tarangroq.

HUDUDLARARO QIYOSIY KORRELYATSION TAHLIL (\$r\$ - Pearson)

Ushbu qismda xarakter va xavotir o'rtasidagi bog'liqlik qaysi hududda qanchalik kuchli ekanligi ko'rsatilgan: Xavotirlanuvchi aksentuatsiya va Umumiy xavotir bog'liqligi: Andijon: $r = +0.58$. Bog'liqlik barqaror, xarakterdagi xavotir maktab hayotiga ta'sir qiladi. Jizzax: $r = +0.68$. Bog'liqlik o'ta kuchli, ya'ni Jizzaxlik o'smirlarning xarakteri ularning hissiy holatini ko'proq belgilaydi. Emotivlik va Shaxslararo munosabatlar: Andijon: $r = +0.42$. Hissiy sezgirlik muloqotda o'rtacha xavotir uyg'otadi. Jizzax: $r = +0.52$. Emotsional holat muloqot jarayoniga kuchliroq ta'sir ko'rsatadi. Gipertimlik (Himoya mexanizmi): Har ikki hududda ham -0.35 va





\$-0.38\$ koeffitsiyentlari qayd etildi. Bu shuni ko'rsatadiki, o'smir qanchalik faol (Gipertim) bo'lsa, unda xavotirlanish darajasi shunchalik past bo'ladi.

XULOSA Quyidagi tadqiqot ishimizda o'smir yoshdagi bolalarni xarakter aksentuatsiyasi va ularning xavotirlanishga bulgan moyilligni maqolamizda korrelyatsion taxlilini keltrdik natijalarda aks etgandaek raqamlarda har ikka viloyatda xam bolalarda xarakter va xavotirlanish kuzatildi jumladan Andijon viloyati o'smirlarida "Emotsional-Xavotirlanuvchi" tipologik bog'liqlik ustun bo'lsa, Jizzax (Mirzacho'l) o'smirlarida "Rigid-Xavotirlanuvchi" (ya'ni qaysarlik va mas'uliyat bilan bog'liq xavotir) bog'liqlik yetakchi o'rinda turadi. Bu esa hududiy psixoprofilaktika ishlarida turlicha yondashuv zarurligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **Vyboyishchik, I. V., & Parshukova, L. P. (2007).** *Aktsentuatsii kharaktera* [Character Accentuations]. Chelyabinsk: South Ural State University Publishing House.
2. **Elkina, A. O. (2017).** *Aktsentuatsii kharaktera* [Character Accentuations]. In *Aktualnye problemy teorii i praktiki psikhologii i sotsiologii* [Current Problems in Theory and Practice of Psychology and Sociology] (pp. 65-67).
3. **Sobchik, L. N. (2005).** *Psikhologiya individualnosti. Teoriya i praktika psikhodiagnostiki* [Psychology of Individuality. Theory and Practice of Psychodiagnosics]. Saint Petersburg: Rech.
4. **Matyushevskiy, I. V. (2017).** *Sotsialno-psikhologicheskoye soprovozhdeniye podrostkov s razlichnymi proyavleniyami aktsentuatsiy kharaktera* [Socio-psychological support of adolescents with various manifestations of character accentuations] (Doctoral dissertation, Siberian Federal University).
5. **Lichko, A. E. (1983).** *Psixopatii i aktsentuatsii kharaktera u podrostkov* [Psychopathies and Character Accentuations in Adolescents]. Leningrad: Meditsina.
6. **Yusupov, I. M. (1995).** *Psikhologiya empatii (Teoreticheskiye i prikladnyye aspekty)* [Psychology of Empathy (Theoretical and Applied Aspects)]. Saint Petersburg: State University of Saint Petersburg.
7. Jurayev, X. O. (2026). Xarakter aksentuatsiya konsepsiyasini ijtimoiy psixologik jixatdan qo'llash sohalari. Science and Education, 7(1), 1050-1055.





8. Odilboyevich, J. X. (2026). SHAXSGA MOTIVATSION YONDASHUVNING PSIXOLOGIK JIXATLARI (O 'SMIRLIK YOSH DAVRI MISOLIDA). Лучшие интеллектуальные исследования, 61(1), 29-35.
9. Gulmira, B. (2019). Semantic and psychological relationship of Envy and Jealousy. In *Bridge to science: research works* (pp. 174-176).
10. Taskarayevna, N. Z., Yuldibayevna, B. G., Niyazova, N., Shehzadi, I., & Turayev, S. (2026). Pedagogical Transformations: Agentic AI as a Co-Teacher and Learning Partner. In *Multidisciplinary Perspectives on Agentic AI in Educational Systems* (pp. 63-86). IGI Global Scientific Publishing.

